



Sirdaryo viloyati
Statistika boshqarmasi

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

2021- yil yanvar-sentabr oylarida

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 5284,4 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi, 3948,7 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 74,7 % ni, korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobidan esa 1335,7 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25,3 % ni o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar

| | Mrd. so‘m | O‘shish sur‘ati, % da | Jamiga nisbatan % da |
|---------------------------------------------------------------------------------|----------------------|--------------------------------------|-------------------------------------|
| Jami | 5284,4 | 100,4 | 100 |
| Markazlashgan investitsiyalar | 1482,3 | 126,2 | 28,1 |
| Respublika byudjeti | 575,2 | 151,9 | 10,9 |
| O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlari | 801,9 | 121,2 | 15,2 |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 91,0 | - | 1,7 |
| Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 14,2 | 10,6 | 0,3 |
| Markazlashmagan investitsiyalar | 3802,1 | 93,0 | 71,9 |
| Xorijiy investitsiya va O‘zbekiston kafolati ostida bo‘lmagan xorijiy kreditlar | 1716,6 | 98,4 | 32,4 |
| Aholi mablag‘i | 168,5 | 97,5 | 3,2 |
| Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 749,8 | 115,9 | 14,2 |
| Korxonalar mablag‘lari | 1167,2 | 76,7 | 22,1 |

Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1482,3 mlrd. so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 28,1 % ni hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3802,1 mlrd. so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 71,9 % ni tashkil qildi.

2021- yil
yanvar-
sentabr

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan investitsiyalar




Markazlashmagan investitsiyalar



2021- yil
yanvar-
sentabr

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)



Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi 54,1 % O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga va Respublika byudjeti tomonidan jami markazlashgan investitsiyalar ulushidagi hajmi 38,8 % ga to'g'ri keldi.


Suv tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha yirik investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning qishloq xo'jaligida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga: kollektorlarni tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari va meliorativ tik quduqlarni rekonstruksiya qilish kabi loyihalarni o'z ichiga oladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, % da)




Xorijiy va boshqa investitsiyalar hisobidan o'zlashirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 45,1 % ni tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, farmasevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqa investitsiya loyihalari.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 30,7 % ni korxonalar mablag'lari tashkil etadi. Bu investitsiya va kreditlar korxonalar va tashkilotlarning o'z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadida amalga oshirishlari bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalar


Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Guliston shahri, Sirdaryo tumani, Shirin shahri, Mirzaobod tumani va Xovos tumanlarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Boyovut tumani, Guliston shahri va Guliston tumanida kuzatildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 2068,4 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashinalar, asbob-uskunalarga investitsiyalar 2972,2 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga 243,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko'payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa, asosiy qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan yirik quvvatlariga investitsiyalar bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Hududlar kesimida texnologik tarkibi (% da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlab chiqarish sanoati 2121,5 mlrd. so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 40,1 % ni, shu jumladan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 626,7 mlrd. so'mni yoki 11,9 % ni tashkil etdi.

Turar joy qurilishiga 135,4 mlrd. so'm yoki 2,6 % ni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligida 818,3 mlrd. so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 15,5 % ni tashkil etdi.


Elektr energiya sohasida 959,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 18,1 % o'zlashtirilgan.

Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

2021- yil
yanvar-
sentabr

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



2021- yil
yanvar-
sentabr


Asosiy kapitalga investitsiyalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

Joriy davrda 2518,6 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 47,7 % xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Bu Sirdaryo tumani, Shirin va Guliston shahri, Boyovut va Mirzaobod tumanlarida yuqori investitsiyalar hajmiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihasi: Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida "Sirdaryo IES" AJ ning moddiy texnika bazasini yaxshilash hisobiga amalga oshirilgan.



Asosiy kapitalga investitsiyalar


Obyektlarni ishga tushirish

Ijtimoiy sohada joriy davrda umumiy maydoni 94,3 ming kv.m bo'lgan 588 ta turar joy obyekti qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 51,4 ming kv.m. bo'lgan 348 ta uy qishloq joylarda joylashgan.



Turar joy qurilishida jami viloyatda ishga tushirilgan turar joylardagi ulushi bo'yicha Guliston shahri va Sirdaryo tumani yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Shirin shahrida esa eng kam turar joylar ishga tushirildi.


Ishga tushirilgan turar joylar



Turar joylarning asosan qishloq joylarda qurilayotganligi aholining o'zi uchun yakka tartibda qurayotgan uylari bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Ishga tushirilgan turar joylar (%)



*Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Investitsiyalar va
qurilish statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul: B.Umarqulov
Aloqa telefoni: (67)236-86-27*